



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2023- yil “4” avgust

BUYRUQ № 56

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022- yil 28- dekabrda “2030- yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022- yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha 2023- yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida SQ-682-IV-sonli qaroriga muvofiq, Statistika agentligi tizimida gender tenglik masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022- yil 28- dekabrda SQ-682-IV-sonli qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan “2030- yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023- yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturining 8-bandiga muvofiq, barcha davlat organlarida maslahat kengashlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjat loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash choralarini ko‘rish topshirig‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligida (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashi tashkil etilsin.

3. Quyidagilar:

- Agentlikning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash bo‘yicha maslahat-kengashi nizomi 1-ilovaga muvofiq;

- Agentlikning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash bo‘yicha Maslahat-kengashi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari, Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti rahbarlari:

- bir hafta muddatda, mazkur buyruq asosida, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashlarini tashkil etsinlar hamda uning nizomi va tarkibini tasdiqlasinlar;

5. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (G. Salixova) mazkur buyruqni Agentlikning markaziy apparati bo'linmalariga tanishtirilishini hamda quyi tizim organlariga yetkazilishini tashkil etsin.

6. Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 6- maydagi 34-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Direktor



B. Begalov